

FREYM KONSEPT HOSIL QILISH USULI SIFATIDA.

Khasanov Khusniddin Kamol o‘g‘li

O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti assistenti

hasanovhk1993@gmail.ru

Kalit so‘zlar: Kognitologiya, kognitsiya, konsept, lingvokulturema, freym, obrazli, metaforik, ifoda plan, mazmun plan, obrazli komponent, chol...

Annotatsiya: Ushbu maqolada kognitologiya, kognitsiya, kognitiv tilshunoslik, konsept termini, freym konsept hosil qilish usuli sifatida qo‘llanilishi, uning lingvokulturemadan farqi, ifoda va mazmun plan, mental tushunchalar, milliylik bilan bog‘liq jarayonlar haqida fikr bildiriladi. Abdulla Oripov ijododa “chol” konseptining o‘rni, obrazli komponentlari haqida to‘xtanilgan.

Ключевые слова: Когнитология, познание, концепт, лингвокультурема, фрейм, образный, метафорический, план выражения, содержательный план, образный компонент, старик...

Аннотация: В данной статье выражено использование когнитологии, когниции, когнитивной лингвистики, концепта термина, фрейма как метода концептообразования, его отличие от лингвокультуремы, экспрессионного и содержательного плана, ментальных концептов, процессов, связанных с национальной принадлежностью. Абдулла Орипов рассказал о роли концепта «старик» в его творчестве, его образных компонентах.

Key words: Cognition, cognition, concept, language culture, frame, figurative, metaphorical, expression plan, content plan, figurative component, old...

Abstract: In this article, the use of cognitology, cognition, cognitive linguistics, concept term, frame as a method of concept generation, its difference from linguokulturema, expression and content plan, mental concepts, processes related to

nationality are expressed. Abdulla Oripov spoke about the role of the "old man" concept in his work, and its figurative components.

Kognitologiya asosida vujudga kelgan kognitiv tishunoslik tilning kognitiv aspekti bilan shug‘ullanadi. Kognitsiya axborotlarni qabul qilish, saqlash, taqdim etish, yaratish harakatlari majmui hisoblanadi. Kognitsiya inson bilimlarinig ongda tushuncha shaklida turg‘unlashuvi, ya’ni vujudga kelib muqim tarzda joylashuvi hamdir. Bu jarayonda inson bilimlarining ongda paydo bo‘lishi, boyishi, takomillashib yoki o‘zgarib borishi lisonda sodir bo‘ladi. Kognitologiyaning fan siftida shakllanishi XX asrning 50, 60-yillariga borib taqaladi. Rasman fan sifatida yuzaga kelishi 1989-yilga to‘g‘ri keladi. Barchamizga ma’lumki, kognitologiya tilni aqliy hodisa sifatida baholaydi. Eng qulay aloqa vositasi til va bu orqali insonlar bir-biri bilan muloqot qilishadi. Til nafaqat aloqa vositasi, balki borliq - olamning ongimizdagи tasvirlari yig‘indisi hisoblanadi. Bu holatni biz “tushuncha” termini orqali ifodalaymiz. Tushunchalar tilda mavjuddir. Biz atrofdagi turli predmet, shaxs va hodisalarning harakati, tashqi belgisi: rangi, shakli, hidi kabi tushunchalarni idrok qilamiz. Ammo bu kabi tushunchalar turli millatlarda turli shaklda aks ettiriladi. Ushbu jarayon til va ma’daniyat tushunchalarining mushtarak ekanligini ko‘rsatib beradi. Konsept tilda ikki xil ma’noda qo’llanadi: 1) ma’naviy madaniyatning kalit so‘zi; 2) so‘zning paydo bo‘lishiga turtki bo‘luvchi birlamchi tasavvur. [Stepanov, 1997:254]. Olimlar konsept tushunchasini qatlamlarga bo‘lib o‘rganadi. Y.S.Stepanov ta’limotida uchta qatlam mavjud: asl ma’no; (ichki shakl), passiv (tarixiy qism), yangicha ko‘rinish (dolzarb va faol qism) [Stepanov 1997:82]. Jumladan, tilshunos olim Shaxriyor Safarov o‘zining “Kognitiv tilshunoslik” kitobida: “konsept asosida tushuncha, obraz va lisoniy ma’no umumlashmasi yotadi, konseptlar inson ongida shakllanadigan turli kategoriyalarning asosini tashkil qiladi hamda ular uchun tayanch nuqta bo‘lib xizmat qiladi”, - deb yozadi. [Safarov, 2006:17] Konsept shunday tushunchaki, u dastlab ongda shakllanadi, kengayadi, rivojlanadi; olam haqidagi tasavvurlarning ongda hosil bo‘ladigan umumlashmasi hisoblanadi. Quyidagi

tahlilga e'tibor berylik, har bir lisoniy shaxs olamni obyektivlashtirish orqali ma'lum tushunchalarni obazli tadqiq etadi. U konseptning "obrazli", metaforik komponentini tashkil etadi. XX asr o'zbek adabiyoti vakillari asarlarida o'rganilayotgan "chol" konseptining qatlamlarini ko'rib chiqishga harakat qildik. "Chol" o'zining metaforik ifodalanishida qanday ko'rinishga ega bo'lishini aniqlashga harakat qilamiz. Dastavval, chol – aniq tushuncha, shaxsga nisbatan qo'llaniladi. O'zbek tilida kelgan matnlar tarkibida "nuroniylik", "ko'pni ko'rganlik" kabi ma'nolar kasb etadi. "Chol" konseptining obrazli komponentlari tahlili bir qancha parametrlarda amalga oshiriladi: chastotaliligi, obraz turi, leksemning to'g'ri ma'nosi kabilar. Chol leksemasi o'zbek lisoniy tafakkuri sohibi uchun *nuroniylik* sifatida tasavvur qilinadi. Unga hurmat, e'zozlash, ko'mak berish kabi munosabatlarda bo'lish tasvirlanadi. Lekin bu ham nisbiy bo'lib, ba'zi hollarda yosh-jins munosabatida chol leksemasining mazmunida ozgina o'zgarish bo'lishi ham mumkin. Masalan, yoshiga nisbatan aqli yoki aqlilik qilishga harakat qiladigan o'g'il jinsiga mansub bolalarga nisbatan ham chol atamasi qo'llaniladi. Bu esa biz obrazli komponentlari tahlilining leksemaning ma'nolari bilan bog'liq holda yuzaga chiqadigan jarayoni hisoblanadi. Abdulla Oripov ijodiga mansub "Oila" she'rida chol leksemasi 4 marta qo'llanilgan bo'lib, shoir ushbu jarayonda har bir o'rinda ishtirok etgan chol leksemasiga turlicha obrazni singdira olgan. Bu esa konsept darajasiga ko'tarilgan leksemaning asosiy xususiyatlarini ochib berishga ko'mak beradi.

- *Hoy, siz ham bolani o'ylang-da bundoq...*

Kampir erk berguncha puch xayoliga,

Kapgirni qaygadir ilib, o'sh choq

Tanbeh bera boshlar CHOLIGA .[A.Oripov 1987:97]

Ushbu o'rinda erkak jinsiga mansub kishilarga xos bo'lgan beg'amlik, beparvolik xususiyati singdirilgan bo'lsa, keyingi misrada esa ushbu xususiyat orttiriladi:

- *Cholchi,*

Ko'zoynagin artgancha bot-bot,

Kitob varaqlaydi: Bedilmi, Mashrab. Shu jarayonda chol leksemasining obrazlilik komponentlari shakllanadi. Tilshunoslikda freym tushunchasi mavjud va bu konsept hosil qilish usuli sifatida qaraladi. “Lingvokognitologiyaga ko‘ra, har qanday matn ma’lum bir freym ifodasidir” [10, 40]. Freym nazariyasi haqida M.Minskiy shunday deydi: «Freym – stereotip vaziyatlarni namoyon qilish usullaridan biri hisoblanib, har qanday freymda ko‘p qirrali axborot o‘zaro bog‘langan bo‘ladi» [6, 53]. A.E.Mamatovning «Tilga kognitiv yondashuvning mohiyati nimada?» nomli maqolasida “Kognitiv tilshunoslikning predmeti til va nutqda aniq konsetplarni aks ettiruvchi leksik, frazeologik birliklar, fikrlar va matnlardir. Konseptning qanday tomonlari, qatlamlari, komponentlari tilning semantik maydoniga kirish, qanday qilib ularni kategoriyalashtirish, ma’lum tilning qaysi qismlarida yuzaga kelishi, namoyon bo‘lishi kognitiv lingvistikada o‘z aksini topadi. Freym–predmet yoki hodisa to‘g‘risidagi standart bilimlarning yig‘indisini namoyon etuvchi ko‘p komponentli konseptdir. Freym bilimning shunday strukturasi bo‘lib xizmat qiladiki, u yoki boshqa bir konsept bilan bog‘liq bo‘lgan tipik va potensial jihatdan ehtimol qilingan asosiy axborotni o‘zida mujassam etadi. Ular zaruriyat yuzasidan xotirada saqlanayotgan komponentlardan tashkil topadi» [5, 9 – 10]. Yuqorida keltirilganlaridan ko‘rishimiz mumkinki, freym nutqiy vaziyatning keng hajmli prototipi bo‘lib, matn yaratilishi jarayonida kognitiv kontekst vazifasini bajaradi.

Xulosa o‘rnida aytishimiz mumkinki, tilshunoslikning milliy madaniyat bilan bog‘liqligi, tilni asl holatida biz faqatgina milliy hududda uchratishimiz mumkinligi, bugungi kunda antroposentrik nazariyaning jadllik bilan ommalashishi inson va uning tafakkuri/ongi kabi tushunchalar bilan bog‘lash imkonini bermoqda. Olamning lisoniy manzarasi har bir tafakur sohibi uchun turlicha kechishi, tilimizda hali tasdig‘ini topmagan va o‘rganilishni talab qiladigan sohalar ko‘p ekanligini ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Степанов Ю.С. Константы. Словарь русской культуры. Опыт исследования. М.: 1997.
2. Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. Жиззах: 2006.
3. Кубрякова Е.С., Демьянков В.З., Панкрац Ю.Г., Лузина Л.Г. Краткий словарь когнитивных терминов. М.: Изд-во МГУ, 1996.
4. А.Е.Маматов. Zamonaviy lingvistika. Т.:2019.
5. А.Орипов. Йиллар армони. Т.: 1987.
6. <http://ladies.academ.org>
7. <http://ru.wikipedia.org>